



**Dilrabo BAXRONOVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, f.f.d*  
**Sevinch MUXAMMADIYEVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti izlanuvchisi*  
E-mail: zaripovna05@gmail.com

*O'zMU professori, f.f.d M.Qurbonova taqrizi asosida*

## THE INFLUENCE OF OTHER LANGUAGES ON THE FORMATION OF SPANISH LEXICON

Аннотация

This article provides a detailed account of the historical origins of the Spanish language and the influence of various languages on its development. While Spanish is primarily based on Latin, its lexical and phonetic foundations have been significantly shaped by languages such as Greek, Arabic and Germanic. Additionally, the article examines the forms and meanings of loanwords from other languages as they appear in contemporary Spanish. This study may serve as a valuable resource for those researching the linguistic history of Spanish and its multifaceted lexical evolution.

**Key words:** Spanish language, Latin language, Arabic language, Basque language, Germanic languages, English language, lexical influence, linguistic changes, globalization.

## ВЛИЯНИЕ ДРУГИХ ЯЗЫКОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛЕКСИКИ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Данная статья рассматривает историческое происхождение испанского языка и влияние различных языков на его развитие. Хотя испанский язык в основном базируется на латыни, его лексическая и фонетическая системы были значительно сформированы под воздействием таких языков, как греческий, арабский, германские языки. Кроме того, в статье анализируются формы и значения заимствованных слов из других языков в современном испанском языке. Это исследование может служить ценным ресурсом для изучения лингвистической истории испанского языка и его многогранной лексической эволюции.

**Ключевые слова:** Испанский язык, латинский язык, арабский язык, баскский язык, германские языки, английский язык, лексическое влияние, языковые изменения, глобализация.

## ISPAN TILI LEKSIKASINING SHAKLLANISHIDA BOSHQA TILLARNING TA'SIRI

Аннотация

Mazkur maqola ispan tilining tarixiy kelib chiqishi va unga turli tillarning ta'siri haqida batafsil ma'lumot beradi. Ispan tili asosan lotin tiliga asoslangan, shunday bo'lsa-da, uning leksik va fonetik fondiga yunon, arab, german tillari katta ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning bugungi ispan tilidagi shakli va ma'nolari ham ko'rib chiqildi. Maqola ispan tilining lingvistik tarixi va uning ko'p qirrali leksik rivojlanishini o'rganayotganlar uchun manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Ispan tili, lotin tili, arab tili, bask tili, german tillari, ingliz tili, leksik ta'sir, lingvistik o'zgarishlar, globalizatsiya.

**Kirish.** Til insoniyatning asosiy muloqot vositasi bo'lib, uning rivojlanishi madaniyat, tarix va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab taxminan 6.000 dan ortiq til mavjud bo'lib, ular turli mintaqalarda tarqalgan va turli tillar oilalariga mansubdir. Til oilasi deb kelib chiqishi jihatidan o'zaro qarindosh, tuzilishi va ayrim leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra o'xshash tillar majmuiga aytiladi. Jumladan, ispan tili eng katta va eng ko'p tarqalgan til oilasi – hind-yevropa tillari oilasining roman tillar guruhiga kiradi. Ispan tili turli tarixiy bosqichlarda turli tillarning ta'siriga uchragan. Asosiy ildizi bo'lgan lotin tilidan tashqari, arab, bask, italyan, german, ingliz tili kabi tillar uning lug'at boyligi, grammatika va talaffuzini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Ispaniyaning shimoliy-markaziy qismi Kastiliya qirolligi hududida ispan tilining dastlabki shakllari X asrda yozma va og'zaki shakllarda kengayib,

rasmiy hujjatlar va adabiyotda qo'llanila boshladi. Til Ispaniyaning boshqa hududlarida ham tarqalib, XV-XVI asrda qiroli Ferdinand va qirolicha Isabel boshchiligidagi butun Ispaniyada rasmiy til sifatida qabul qilindi. Kelib chiqish tarixi Kastiliya hududiga borib taqalgani uchun ham ispan tili "castellano" – kastiliya tili deb ham ataladi. Quyida ispan tiliga ta'sir o'tkazgan tillarni misollar orqali ko'rib chiqildi.

Lotin tilining ta'siri. Rimliklar Ispaniyani miloddan avvalgi 218-yilda bosib olishni boshlaydilar. Shundan so'ng, Rim imperiyasining Ispaniyada hukmronligi davrida xalq tili ya'ni lotin vulgar mahalliy tillarga singib ketgan va kelajakda ispan tili shakllanishida asosiy rol o'ynagan. Lotinchadan ispanchaga o'tgan ko'plab so'zlar asosan rim imperiyasining ijtimoiy, ma'muriy, oilaviy va kundalik hayotga oid so'zlardir:

|                             |                              |
|-----------------------------|------------------------------|
| pater – padre (ota)         | scribere – escribir (yozmoq) |
| mater – madre (ona)         | rivus – río (daryo)          |
| aqua – agua (suv)           | lacus – lago (ko'l)          |
| caput – cabeza (bosh)       | civitas – ciudad (shahar)    |
| manus – mano (qo'l)         | terra – tierra (yer)         |
| liber – libro (kitob)       | deus – dios (Xudo)           |
| dicere – decir (aytmok)     | schola – escuela (maktab)    |
| currere – correr (yugurmoq) | amare – amar (sevmok)        |

German tillarining ta'siri. Shular bilan bir qatorda german tili ham vizigotlar hukmronligi davrida (V-VIII asrlar) ispan tiliga bir qancha leksik, fonetik va grammatik o'zgarishlar olib keldi. Vizigotlar - german qabilalaridan biri bo'lib, 409-yildan Rim

imperiya'sining zaiflashuvidan foydalanib, Ispaniyaning turli hududlariga bostirib kirdi va 554-yilda butun Ispaniyani o'z nazorati ostiga oldilar. Ularning hukmronligi 710-yil Vizigot qiroli Vittiza vafot etgach, arablarning bostirib kelguniga qadar

davom etgan. Bu davr mobaynida ispan tiliga asosan harbiy, huquqiy, ijtimoiy va kundalik hayot bilan bog'liq so'zlarning ta'siri katta bo'ldi. Masalan:

albergue (mehmonxona, boshpana) – “heriberga” (harbiy lager);

burgo (shahar) – “burg” (qal'a, shahar);

espia (josus) – “spähen” (kuzatmoq);

guardia (qo'riqchi) – “wardon” (qo'riqlamoq);

robar (o'g'irlamoq) – “rauben” (o'g'irlamoq) [5,6].

Arab tilining ta'siri. 711-yilda arablar Ispaniyaga kirib kelib, 800 yil davomida Al-Andaluzda (hozirgi Andalusiya hududi) hukmronlik qildilar. Ushbu davr mobaynida arab tili Ispaniya hududida o'zining chuqur izini qoldirib, nafaqat kundalik hayotdagi so'zlarda, balki, ilm-fan, madaniyat, arxitektura va savdo sohasida ham ta'siri sezilarli bo'ldi. Ikki madaniyatning uzoq vaqt birga yashashi natijasi ularning bir-birini boyitish bo'ldi, voqelikni nomlovchi ko'p sonli arab so'zlari ispan tiliga o'zlashtirildi [4]. Hozirda ulardan ba'zilar arxaizmga aylangan bo'lsada, ammo ko'plari yashab qoldi va hozirgi kungacha o'z faolligini yo'qotmadi. Arab tilidan olingan ispancha so'zlarga misollar:

1. Alcohol (alkogol) ← الْكُحْل (al-kuhl). Al-kuhl arab tilida spirtli ichimlik yoki ko'z bo'yog'ini ifodalagan. Keyinchalik, bu so'z spirtli ichimliklar uchun ishlatila boshladi va ispan tiliga ham ayni ma'noda o'tdi.

Azúcar (shakar) ← السُّكَّر (al-sukkar). Al-sukkar arab tilida shakarni anglatgan. Arablar shakarni eksport qilganlaridan so'ng, bu so'z Ispaniyaga o'tgach, o'zgarishsiz shakarni ifodalashda ishlatilgan.

Almohada (yostiq) ← المَخْدَة (al-mukhadda). Al-mukhadda arab tilida yostiq yoki boshni qo'yish uchun ishlatiladigan yumshoq narsa deb atalgan.

Naranja (apelsin, norinj) ← نَارَنْج (nārang). Nārang arab tilida apelsin mevasini anglatgan. Arablar o'zlari bilan turli dehqonchilik namunasini olib kelgan, jumladan, apelsin, limon, bodring va boshqa sitrus mevalar.

Ojalá (Insha Alloh) ← اللَّهُ شَاءَ إِنَّ (inshalla). Inshalla arab tilida “Agar Xudo xohlasa” degan ma'noni anglatadi. Ispan tilida esa bu ifoda umidni yoki biror narsaning amalga oshishini kutishni ifodalash uchun ishlatiladi, “balki, zora” kabi mazmunda qo'llanadi.

Aldea (qishloq) ← الدِّيَا (al-diyā'). Al-diyā' arab tilida qishloq yoki kichik aholi punktni anglatgan. Ispan tilida ham bu so'z qishloqni anglatadi.

Algodón (paxta) ← القُطْن (al-quṭn). Al-quṭn arab tilida paxtani ifodalagan. Paxtaning ispan tiliga o'tishi arablar Ispaniyada hukmronlik qilgan davrga borib taqaladi.

Balcón (balkon) ← بِالْكُون (bālkhūn). Bālkhūn arab tilida balkon yoki ochiq joyni ifodalagan. Ispan tiliga ham bu so'z balkon sifatida kiritilgan.

Mango (mango) ← مَانْغُو (māngū). Māngū arab tilida mango mevasini anglatgan. Ispan tilida bu so'z o'zgarmasdan, mango mevasini ifodalashda ishlatiladi.

Navegar (sayohat qilish, kemada yurish) ← نَوَاجِه (nawājah). Nawājah arab tilida sayohat qilish, maxsus kemada harakatlanish ma'nosini bildirgan. Ispan tilida esa kemada yurish yoki sayohat qilishni ifodalashda ishlatiladi.

Taza (chashka) ← طَاسَة (tāsah). Tāsah arab tilida chashka yoki kichik idish deb atalgan. Ispan tilida ham bu so'z chashka yoki idishni anglatadi.

Zanahoria (sabzi) ← صِنَارِيَّاه (šinārīyah). Šinārīyah arab tilida sabzi yoki sabzavotni ifodalagan. Ispan tilida bu so'z sabzi uchun ishlatiladi [1].

Tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, asosan otlar (aksariyati) va sifatlar arab tilidan ispan tiliga o'zlashgan, ammo hamma arabcha o'zlashmalarning kelib chiqishi aniq emas. Arabcha al-

(arab tilidagi artikl) hisoblanib, u bilan boshlanadigan ispan tilidagi so'zlar arabcha ekanligiga ishoniladi, lekin al- bilan boshlanmaydigan arabcha so'zlar ham ko'p. Zamonaviy ispan tilida ko'plab arab tilidan kirib kelgan so'zlarning mavjudligi tilni boyitish va uning leksik me'yorini shakllantirishdagi ulkan rolini ko'rsatadi.

Bask tilining ta'siri. Euskera ya'ni bask tilidan ispan tiliga so'zlar asosan madaniy, geografik va tarixiy aloqalar orqali o'zlashgan. Bask tili odatda ispan tili bilan keng muloqotda bo'lgan joylarda ispan tiliga fonetik va leksik ta'sir ko'rsatgan. Bask tilidan kirib kelgan so'zlar asosan kundalik hayot, geografiya, o'ziga xos madaniy unsurlar va o'zgarishlar bilan bog'liq. Garchi bask tili va ispan tili tuzilishi va grammatikasi jihatidan butunlay boshqacha bo'lsada asrlar davomida birga yashashi natijasida bu ikki til o'rtasida o'zaro ta'sir shakllangan. Ushbu ta'sir ayniqsa basklar yashaydigan Ispaniyaning shimoli-sharqida, Fransiya bilan chegaradosh hududlarda Bask (Pais Vasco) va Navarra mintaqalarida gapiriladigan ispan tilida yaqqol seziladi.

Bask tilida ispan tilida mavjud bo'lmagan tovushlar bor. Masalan: “tx” - [tʃ] tovushi. U ingliz tilidagi “ch” shaklida talaffuz qilinadi. Masalan, Getxo – Guecho (Bilbao yaqinidagi shahar).

Ispan tilidagi “izquierda” (chap) so'zi bask tilidagi “ezkerra” so'zidan olingan. Bundan tashqari, basklar yurtidagi joy nomlari ko'pincha o'zining asl baskcha nomlarini saqlab qolgan, bu esa ispancha nomlardan ancha farq qiladi. Masalan:

Ziburu – Ciboure (Saint-Jean-de-Luz yaqinidagi shahar);

Miarritze – Biarritz (Mashhur dengiz bo'yidagi shahar);

Baiona – Bayonne (Nouvelle-Aquitaine viloyatining

shaharlaridan biri);

Hondarribia – Fuenterrabía (Fransiya bilan chegaradosh shahar);

Getxo – Guecho (Bilbao yaqinidagi shahar) [8].

Fransuz, italyan va ingliz tili ta'siri. Nafaqat ispan va fransuz tillari roman tillar guruhiga kirishi sababli, balki Fransiyaning Ispaniyaga yaqin joylashuvi ham tarix davomida har ikkala madaniyatga ta'sir ko'rsatgan. Zamonaviy fransuz ta'siri asosan oshxona madaniyati va moda sanoatidan kelib chiqadi. Saroy, moda, ilm-fan va san'at sohalaridan ko'plab so'zlar ispan tiliga o'tgan. Masalan:

chandal – chandail (sport kostyumi), leotardo – leotard, mascota – mascotte, pais – pays, jamón – jambon, chéfer-chauffeur va hk.

Fransuz tilining xos ba'zi grammatik hodisalar ham ispan tiliga ta'sir ko'rsatgan. Misol uchun: fransuzchada ko'p qo'llaniladigan “le/la” (belgili artikl) va “en” (joy ma'nosida) kabi leksik birliklar ispan tili grammatikasida o'z aksini topgan.

Italyan tilining ispan tiliga ta'siri musiqa, san'at va ilm-fan sohalarida seziladi: chao-ciao (salom, xayr); birra-birra (pivo); labor-lavoro (ish); novela-novella (roman); pizza-pizza (pitsa); brocoli-brocoli (brokoli)

Ingliz tilining ta'sirini asosan XX asrda globalizatsiya va texnologiya rivojlanishi natijasida ko'rish mumkin. Lotin Amerikasining AQShga yaqinligi va mamlakatdagi ispan tilida so'zlashuvchilarning yuqori foizi, ispan-amerika an'analari va odatlari aralashmasiga olib kelgan. Ispan tiliga o'zlashgan so'zlar: internet, chat, sandwich, club, golf, coctel, bar [7].

**Xulosa.** Ispan tili dunyoning barcha tillari kabi turli tillarning ta'siriga uchragan va bu uning lug'at tarkibini boyitgan. Lotin tili ispan tilining asosini tashkil etgan bo'lsa, arabcha so'zlar O'rta asrlarda katta ta'sir ko'rsatgan. Bask, fransuz va italyan kabi tillar esa keyingi asrlarda lingvistik o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Ushbu tillarning ta'siri natijasida ispan tili yanada boyib, dunyoda eng keng tarqalgan tillardan biriga aylandi. Bugungi kunda ham globalizatsiya jarayonlari tufayli boshqa tillardan yangi so'zlar ispan tiliga jadal kirib kelmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Baxronova D., Burxonov U. O'zbek va ispan tillariga o'zlashgan arabizmlarning lingvistik-etimologik xususiyatlari.// O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2023. – № 1 (48). – B.65-75.
2. Burxonov, U. (2022). Arabizmlarning ispan tili leksikasiga o'zlashganlik tarixiga doir. Oriens, №7. <https://cyberleninka.ru/article/n/arabizmlarning-isan-tili-leksikasiga-o-zlashganlik-tarixiga-doir>
3. Burxonov, U. (2023). Ispan tilidagi so'zlarning kelib chiqishida lotin, arab va boshqa tillarning roli. International Conference Philology, Methodology, Translation Studies: Current Issues of Modern Science, 288-291. DOI: <https://doi.org/10.2024/3mjs1b41>.

4. Dilrabo Bakhronova, Roberto Simbaña Q. La nueva condición histórica. Lenguaje en la cultura globalizada e identidad nacional. DOI: <https://doi.org/10.46652/religacionpress.141.c99>.
5. Federico Corrienteni. “Arabismos y cognados en las lenguas de la Península Ibérica”. – Madrid: Gredos, S.A., 1999. – 282 p.
6. Juan Corominas, and all. Diccionario Etimológico Crítico de las Lenguas Castellana y Española, Madrid, Gredos, S.A., 1984, letras CE-F.
7. Spanish Academy. (2023). Which languages and cultures influenced Spanish? Retrieved from <https://www.spanish.academy/blog/which-languages-and-cultures-influenced-spanish/>
8. TalkPal. (2023). The Basque language and its influence on learning Spanish. <https://talkpal.ai/culture/the-basque-language-and-its-influence-on-learning-spanish/>